



OROLBO'YI MINTAQALARIDA YASHOVCHI BEMORLARDA DENTAL IMPLANTATSIYADAN KEYINGI YALLIG'LANISH ASORATLARINI OLDINI OLISH

Masharipov Eldorbek Yarashboy o'g'li

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Stomatologiya fakulteti
1-bosqich magistranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Orolbo'yi mintaqalarida yashovchi aholining ekologik omillar ta'sirida yuzaga kelayotgan sog'liq muammolari kontekstida dental implantatsiyadan keyingi yallig'lanish asoratlari oldini olish masalalari tahlil qilingan. Maqolada implantatsiya jarayonidan keyingi periimplantit, gingivit va boshqa yallig'lanish holatlarining yuzaga kelish sabablari, Orolbo'yi mintaqasiga xos bo'lgan mikrobiologik va immunologik muhit, bemorlarning umumiy somatik holati va ekologik stress omillarining roli ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, asoratlarni oldini olishda individual gigiyena, profilaktik antibiotikoterapiya, implantatsiyadan oldingi va keyingi rehabilitatsiya choralarining ahamiyati yoritiladi. Taklif etilgan profilaktik yondashuvlar yallig'lanish asoratlarning kamayishiga, implantlarning uzoq muddatli saqlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Orolbo'yi mintaqasi, dental implantatsiya, yallig'lanish asoratlari, periimplantit, ekologik stress, immunitet, profilaktika.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida tibbiyotning turli yo'nalishlarida, xususan, stomatologiyada texnologik yutuqlar asosida yuqori samarali muolajalar ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri – dental implantatsiya bo'lib, u yo'qolgan tishlarni tiklashda eng ishonchli va uzoq muddatli yechim sifatida tan olinmoqda. Dental implantlar yordamida bemorning chaynash funksiyasi tiklanadi, estetik ko'rinishi yaxshilanadi va umumiy hayot sifati oshadi. Biroq, bu jarayonning



muvaffaqiyati ko'p jihatdan bemorning umumiy sog'lig'i, immun holati, og'iz bo'shlig'ining gigiyenasi va ekologik muhitga bog'liqdir.

Orol dengizi fojiasi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz O'zbekistonning g'arbiy hududlarida yashovchi aholining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hududlarda havoning, suvning va tuproqning ifloslanishi, yuqori chang miqdori va mikroelementlar yetishmovchiligi inson organizmining immunitet tizimini zaiflashtiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, dental implantatsiya amaliyotidan so'ng bu hududlarda bemorlarda yallig'lanish asoratlari tez-tez uchraydi. Ushbu maqolada aynan shu muammo tibbiyot va stomatologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Dental implantatsiya – yo'qolgan tishlarni tiklashda keng qo'llaniladigan zamonaviy usul. Ammo operatsiyadan so'ng yuzaga keladigan periimplantit va mukozit kabi yallig'lanish holatlari uning muvaffaqiyatiga jiddiy tahdid soladi. Bu holatlar ayniqsa immuniteti past bo'lgan bemorlarda tez-tez uchraydi.

Dental implantatsiya – zamonaviy stomatologiyada keng qo'llanilayotgan samarali protezlash usullaridan biri bo'lsa-da, uning muvaffaqiyati ko'plab omillarga, xususan bemorning umumiy sog'ligi, yomon odatlari, maxsus patologik holatlar va og'iz bo'shlig'i gigienasiga bevosita bog'liq. Shu sababli, implantatsiya jarayoniga tayyorgarlik ko'rish jarayonida kontrendikatsiyalarni chuqur tahlil qilish zarur. Bu kontrendikatsiyalar bir nechta yirik guruhlariga ajratiladi va ular orasida umumiy organizm tizimlariga oid kasalliklar, yuqumli va onkologik patologiyalar, shuningdek bemorning psixofiziologik holati alohida o'rin tutadi.

Umumiy kontrendikatsiyalar: Implantatsiyaga qarshi umumiy ko'rsatmalar orasida yurak-qon tomir tizimining og'ir yetishmovchiligi, qon ivishining buzilishi, endokrin tizim kasalliklari (ayniqsa, dekompensatsiyalangan shakldagi qandli diabet), jigar va buyrak yetishmovchiligi, surunkali yuqumli kasalliklar, onkologik kasalliklar, shuningdek, narkomaniya va alkogolizm holatlari mavjud. Bunday bemorlarda jarrohlik aralashuvi xavfli bo'lishi va implantning organizm tomonidan rad etilishi ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin.



Mahalliy (lokal) kontrendikatsiyalar: Implantatsiyaga qarshi ko'rsatmalar orasida og'iz bo'shlig'iga oid lokal omillar ham muhim ahamiyatga ega. Bular quyidagilardan iborat:

- Maksillofasiyal sohada o'sma yoki shunga o'xshash shakllanishlarning mavjudligi (malign yoki benign neoplazmalar).
- Osteoradionekroz – suyak to'qimalarining nur bilan zararlanishi natijasida yuzaga keluvchi nekrotik holatlar.
- Og'iz shilliq qavati yoki lablarning qizil chegara hududida pre-o'sma (prekanseroz) kasalliklar mavjudligi.
- Metall materiallarga nisbatan individual intoleransning klinik belgilari.
- Umumiy yoki og'ir shakldagi periodontit, ya'ni tish atrofidagi to'qimalarning yallig'lanishi va ularning ildiziga zarar yetishi.
- Idiopatik periodontal kasalliklar, masalan, Papiyon-Lefevr sindromi, bu kasallik og'ir to'qima yo'qolishlari bilan kechadi.
- Bemorda yetarli og'iz gigienasi madaniyati mavjud emasligi yoki gigienik holatni saqlab qolishga bo'lgan istakning yo'qligi.

Yordamchi tekshiruv va baholash usullari: Implantatsiya jarayonini boshlashdan oldin har bir bemor keng qamrovli diagnostik tekshiruvdan o'tishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

- Bemorning umumiy anamnezini yig'ish (shaxsiy va oilaviy tibbiy tarix),
- Umumiy klinik laborator tekshiruvlar (qon va siydik umumiy tahlillari),
- Og'iz bo'shlig'ining vizual tekshiruvi (tishlarning holati, alveolyar jarayonlar, shilliq qavat, tishlash turi, gigiena darajasi).

Instrumental diagnostika-Rentgenografiya yordamida tish-skelet tizimining holati tahlil qilinadi. Shuningdek, kompyuter tomografiyasi (KT) esa jag' suyaklarining zichligi, trabekulyar tuzilma, alveolyar jarayonlarning o'lchamlari va atrofiyasi darajasi, maksillar sinuslar va mandibulyar kanallarning joylashuvini aniqlash imkonini beradi.

Stereolitografik modellashtirish va elektr galvanik potentsiallar aniqlash esa murakkab holatlarda operatsiyani rejalashtirishni osonlashtiradi.



Tish implantlari bilan bog'liq yallig'lanish holatlarini yanada samarali davolash maqsadida yangi tibbiy texnologiyalar, shu jumladan nanodori vositalari, bioaktiv qoplamalar va regenerativ terapiya usullarining rivojlantirilishi kutilmoqda. Bu innovatsion yondashuvlar nafaqat mavjud muammolarni hal qilishga, balki ularning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Profilaktika va gigiyena: Har qanday yallig'lanishning oldini olishda asosiy omil – bu to'g'ri va doimiy og'iz gigiyenasini saqlashdir.

Dental implantatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bemorning umumiy salomatlik holatini, og'iz bo'shlig'ining gigienik va anatomo-fiziologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zarur. Kontrendikatsiyalar aniqlanganda, implantatsiya rejalashtirilmasligi yoki avval muammoli holatlar bartaraf etilgach amalga oshirilishi kerak. Bu yondashuv uzoq muddatli ijobiy natijalarga erishish va bemorning sog'lig'ini asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Xulosa qilib aytganda, Orolbo'yi mintaqasida dental implantatsiyadan keyingi yallig'lanish asoratlari ekologik va immunologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, implantatsiya amaliyotini o'tkazishda bu hududga xos individual profilaktik protokollarni ishlab chiqish zarur. Taklif etilgan choralar bemorlarning sog'lom tish tizimi bilan yashash imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmonov S., Yuldashev I. Ekologiya va sog'liq. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Zitzmann N.U., Berglundh T. Definition and prevalence of peri-implant diseases. J Clin Periodontol. 2008; 35:286–291.
3. Rustamova D., Atayev O. Orolbo'yi mintaqalarining ekologik xususiyatlari va sog'liq uchun xavflari. Nukus: Qoraqalpoq Davlat Universiteti nashriyoti, 2022.

¹ Rustamova D., Atayev O. Orolbo'yi mintaqalarining ekologik xususiyatlari va sog'liq uchun xavflari. Nukus: Qoraqalpoq Davlat Universiteti nashriyoti, 2022.